

TASAVVUFİY TAFSIRLARNING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СУФИЙСКИХ ТАФСИРОВ

THE EMERGENCE AND DEVELOPMENT OF SUFI TAFSIR

HABIBULLAYEVA Xalima Farxod qizi
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN

Junior Researcher

Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

E-mail: halimahabibullayeva@gmail.com

DOI: 10.47980/IIAU/2026/1/3

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom ilmlarining muhim yo'nalishlaridan biri – tasavvuf va tafsir ilmining shakllanishi hamda ularning o'zaro integratsiyasi natijasida tasavvufiy tafsirlarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlari ilmiy tahlil qilingan. Ta'vil va tafsir tushunchalari, tasavvufga berilgan ta'riflar atroflicha yoritilgan. Tafsir ilmi Qur'on nozil bo'lgan ilk davrdan boshlab, ya'ni Payg'ambar (s.a.v.) davri, sahobalar va tobeinlar davridan to hozirgi kunga qadar uzviy taraqqiy etib kelgan. Oyatlarning tasavvufiy talqini ham ilk Payg'ambar (s.a.v.) davrlarida uchragani, sahoba va tobeinlar davrida yanada rivojlangani uning shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qilgan. Tasavvufiy tafsirlar Qur'on oyatlarining ichki, ramziy, majoziy ma'nolarini anglashga qaratilgan bo'lib, ushbu tafsirlarda ilhom, kashf kabi vositalardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Ishoriy tafsirlar zohiriy ma'noga zid bo'lmagan holda Qur'on mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tasavvufiy tafsirlar rivojlanishining besh bosqichi ajratilgan bo'lib, ular Payg'ambar va sahobalar davri, ilk mutasavviflar davri, o'rta asr so'fiy mufasssirlar bosqichi, tasavvufiy tafsirlarning yuksalish davri (XIII-XVIII asrlar) va zamonaviy davr tafsirchilik (XIX asrdan to hozirgi kunga qadar) bosqichlarini o'z ichiga oladi. Har bir bosqichda tasavvufiy tafsirning shakli, uslubi va mazmuni tobora takomillashgan. Zamonaviy mutasavviflar tomonidan Qur'on tafsirining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy jihatlari bilan uyg'unlashgan holatlari ko'rib chiqilgan. Maqolada tasavvuf ilmining tafsir bilan uzviy bog'liqligi, tasavvufiy tafsirlarning dastlabki shakllaridan boshlab, hozirgi kungacha yozilgan yirik ishoriy tafsirlarning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilingan. Tasavvufiy tafsirlarning qabul qilinishi uchun zarur bo'lgan shartlar va bu borada tafsir olimlarining qarashlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, mufasssir, tafsir, ta'vil, tasavvuf tarixi, ishoriy tafsirlar, ishoriy tafsirlarga qo'yiladigan shartlar.

Аннотация. В статье представлен научный анализ формирования ключевых направлений исламских наук – суфизма и тафсира, а также этапов становления и развития суфийского тафсира как результата их взаимной интеграции. Особое внимание уделено разграничению понятий та'виль и тафсир, а также систематизации основных определений суфизма как научной и духовной дисциплины.

Отмечается, что наука тафсира развивается непрерывно с первых периодов ниспослания Корана – со времени Пророка Мухаммада (мир ему и благословение), эпохи сподвижников (сахаба) и последователей (таби'ин) вплоть до современности. Суфийское толкование аятов также восходит к эпохе Пророка и получило дальнейшее развитие в период сахабов и таби'инов, что стало важной основой для его формирования.

Суфийский тафсир направлен на постижение внутренних, символических и аллегорических смыслов коранических аятов. В таких толкованиях важную роль играют средства, основанные на духовном опыте, такие как вдохновение (ильхам), видения (руйя) и духовное откровение (кашф). Ишарийный (аллегорический) тафсир способствует более глубокому осмыслению содержания Корана, не противореча его внешнему (захир) смыслу.

В исследовании выделены пять этапов развития суфийского тафсира: эпоха пророка и сподвижников, период ранних суфиев, этап средневековых суфийских мufасссиров, период расцвета суфийского тафсира (XIII-XVIII вв.), современный этап (с XIX века до настоящего времени).

На каждом этапе формы, методы и содержание суфийского тафсира совершенствовались. Особое внимание уделяется современным суфийским комментаторам, стремящимся гармонично соединить тафсир Корана с социальными, нравственными и духовными аспектами.

Кроме того, в статье рассматривается тесная взаимосвязь между наукой суфизма и тафсиром, проанализированы научно-теоретические основы крупных ишарийных тафсиров, созданных с раннего исламского периода до наших дней. Также обсуждаются условия, необходимые для признания суфийского тафсира, и позиции учёных-мufасссиров по данному вопросу.

Ключевые слова: тасаввуф, мufасссир, тафсир, та'виль, история тасаввуфа, ишарийские тафсиры, условия ишарийского тафсира.

Annotation. This article provides a scholarly analysis of one of the important branches of Islamic studies – Sufism and Qur'anic exegesis (tafsir) – and examines how their mutual integration led to the emergence and development of Sufi exegeses. In particular, the study explores the conceptual distinctions between ta'wil and tafsir, and presents comprehensive definitions of the science of Sufism.

The science of tafsir has undergone continuous development from the earliest days of the Qur'anic revelation

starting from the time of the Prophet Muhammad (peace be upon him), the Companions (Sahabah), and the Followers (Tabi'in) up to the present day. The Sufi interpretation of the Qur'anic verses also appeared during the early period of the Prophet (peace be upon him) and further developed during the eras of the Companions and the Followers, serving as an important foundation for its formation.

Sufi tafsirs are focused on discovering the inner, symbolic, and allegorical meanings of Qur'anic verses. These commentaries rely on spiritual means such as inspiration (ilham), visions (ru'ya), and unveiling (kashf). Allegorical (ishari) exegesis serves to deepen the understanding of the Qur'anic message without contradicting its outward (zahir) meaning.

The study identifies five major stages in the historical development of Sufi tafsir: the era of the Prophet and the Companions, the period of the early Sufis, the stage of medieval Sufi exegetes, the flourishing period of Sufi tafsir (13th–18th centuries), the modern era of Sufi interpretation (from the 19th century to the present). Each stage demonstrates a progressive refinement in the form, methodology, and content of Sufi tafsir. The article also examines how contemporary Sufi scholars interpret the Qur'an in a way that integrates its social, ethical, and spiritual dimensions.

Furthermore, the article examines the deep-rooted relationship between Sufism and Qur'anic exegesis, analyzing the theoretical and methodological foundations of major isharī commentaries written from the early Islamic period up to contemporary times. It also discusses the essential conditions for the acceptance of Sufi exegesis and presents the perspectives of classical and modern scholars of tafsir regarding this approach.

Keywords: Sufism, mufasssir (Qur'anic exegete), tafsir, ta'wil, history of sufism, esoteric (ishari) tafsirs, conditions for esoteric tafsirs.

KIRISH

Jahon miqyosida islom dinining asosiy manbasi sanalgan Qur'oni karimning ma'no-mazmunini o'rganish, talqin etish va izohlashga qaratilgan ko'plab klassik hamda zamonaviy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yangi O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada olib borilayotgan islohotlar ta'sirida islomshunoslik yo'nalishida, xususan, ma'naviy meros namunalarini ilmiy jihatdan o'rganish, ularni tizimlashtirish va ilmiy muomalaga kiritish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda tafsir ilmi, shuningdek, tasavvufiy (ishoriy) tafsirlarning shakllanishi va taraqqiyoti alohida o'rin tutadi. Islomning dastlabki davrlarida Qur'on oyatlarini sharhlashda hadislar hamda sahobalardan rivoyat qilingan xabarlar asosiy tayanch manba bo'lib xizmat qilgan. Keyingi davrlarda esa, ayrim ulamolar oyatlarning zohiriy ma'nosi bilan

bir qatorda ularning botiniy-ramziy qatlamiga ham e'tibor qaratib, tasavvufiy-ishoriy tafsir an'anasining rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir ko'rsatgan.

Tasavvuf islom shariati talablarini ixlos bilan ado etish bilan birga, zuhd, taqvo, kamtarlik kabi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassam etgan holda, nafsni poklash va ma'naviy komillikka intilish yo'lidir. Ilmiy adabiyotlarda shariat va tariqat munosabati ko'pincha quyidagicha izohlanadi. Shariat islomning zohiriy-amaliy me'yorlarini ifodalasa, tasavvuf (tariqat) insonning botiniy-ma'naviy ehtiyojlari, ruhiy tarbiyasi va ichki kamolotga yo'naltirilgan jihatlarini yoritadi (Rahimov K., 2020:15).

ASOSIY QISM

“Tafsir” تفسیر so'zi “fassara” (فَسَّرَ) fe'lining o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, lug'aviy jihatdan “bayon qilish”, “yoritish”, “ochib berish”, “sharhlash” ma'nolarini anglatadi. “Tafsir” iʼtilohiy ma'noda esa “yopiq (noaniq) mazmunni ochish”, “mushkul lafzdan ko'zlangan maqsadni izohlash” kabi mazmunlarni ifodalaydi. Shu asosda “mufasssir” atamasi Qur'on oyatlarining ma'nosini sharhlab beruvchi olimni bildiradi. Tafsir ilmining mohiyatiga oid klassik ta'riflardan biri Badriddin Zarkashiy (vaf. 794/1393) tomonidan berilgan bo'lib, u “Tafsir – Muhammad (s.a.v.)ga nozil qilingan Allohning kitobini anglash, uning ma'nolarini bayon etish hamda undan hukm va hikmatlarni chiqarib olish imkonini beradigan ilm” – deb ta'riflaydi. Bu jarayonda inson Qur'on ma'nolarini o'z bilimi, idroki va imkoniyati doirasida tushunadi.

Umumiy yondashuvda “tafsir” Qur'ondan ko'zlangan maqsadni inson o'z aqliy darajasida anglab, uni boshqalarga tushunarli tarzda izohlab berishi sifatida ham ta'riflanadi (Maxsudov, 2021:5). Tafsirga berilgan ta'riflar ko'p bo'lsa-da, ulamolar orasida nisbatan mukammal deb e'tirof etiladigan ta'rif quyidagicha bayon qilinadi. Tafsir Qur'on lafzlarining talaffuzi, ularning mazmuni, so'zlarning yakka holatda hamda birikma tarkibida anglatadigan hukm va ma'nolari, grammatik tuzilish taqozosiga ko'ra yuzaga keladigan semantik qatlamlar hamda ushbu ma'nolarni to'ldiruvchi qo'shimcha omillarni xususan, oyatlarning nosix-mansux masalasi va nuzul sabablarini o'rganadi, shuningdek, mubham (aniq izoh talab qiladigan) qissa va rivoyatlarni sharhlashni ham qamrab oladi (Abdullayev A. va mualliflar jamoasi, 2016:30).

Tafsir bilan bir qatorda “ta'vil” kalimasi ham qo'llanilib, “avvala – yuavvilu” “أَوَّلٌ – يَأْوِلُ” fe'lining o'zagidan olingan ushbu so'z “izohlamoq”,

“tushuntirmoq”, “ta’vil qilmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Ba’zi olimlar “ta’vil” “تأويل” so’zini “avl” “أول” o’zagidan olinganini keltiradi va “asliga qaytish”, “fikrlash”, “o’ylash”, “tafsir qilish”, “gapiruvchining fikriga qaytish” kabi bir qancha ma’nolarni sanaydilar. Muhammad Shinqitiiy (vaf. 1393/1973 y.) ta’vil so’ziga izoh berib, “Usul olimlari nazdida ta’vil uch holatdan biriga bog’liq bo’ladi. Birinchisi, sahih ta’vil bo’lib, so’zning zohiridan aniq mazmun dalolat qilib turadigan ma’no olinadi. Ikkinchisi haqiqatdan uzoq ta’vil bo’lib, biror bir so’zning ma’nosi haqida to’g’ri deb o’ylab, fikr bildiradi, biroq ushbu asl ma’nodan uzoq bo’ladi. Uchinchisi esa, aslo dalili yo’q, botil ta’vildir”, – deb ta’riflaydi.

Imom Moturudiy “tafsir” va “ta’vil” so’zlari o’rtasidagi farqni quyidagicha tushuntiradi: “Tafsir bu Allohning maqsadi mana shu deyish va Alloh bundan shuni ko’zlagan deb guvohlik berish. Agar ushbu ma’noning dalili bo’lsa, ushbu tafsir to’g’ri bo’ladi, aksincha bo’lsa, aqliy tafsiri nomaqbul sanaladi. Ta’vil esa, qat’iy bo’lmagan va Allohga guvohlik bermagan holda ehtimolli ma’nolardan birini maqbul sanashdir” (Maxsudov D., 2019:7).

“Tasavvuf” va “so’fiy” so’zlari qaysi o’zakdan olingani va undan ko’zlangan ma’no haqida bir qancha fikr-mulohazalar aytilgan bo’lib, “Qavoidut tasavvuf” kitobida zikr qilinishiga ko’ra, mashhur tasavvuf shayxi Ahmad Zarruq (vaf. 846/1493 y.) ikki mingga yaqin ta’rifni keltirgan. Ularning hammasi Allohga sodiq tavajjuh qilish ma’nosidir. Ahli tasavvufning o’zlari uning ta’rifidagi bunday xilma-xillikni yaxshilik alomati deb biladilar. Misrdagi “Ashiyrai Muhammadiya” tariqatining boshlig’i, Muhammad Zakiy Ibrohim bu haqda “Tasavvuf ta’rifidagi ixtilofga kelsak, u kishilarning suluk darajalaridagi martabalariga oiddir. Ularning har biri o’z ehsonini o’z maqomida tarjima qilgan. Bu bilan o’zidan boshqaning maqomiga qarshi chiqqan hisoblanmaydi, chunki, haqiqat bitta bo’lib, u katta bog’ga o’xshaydi. Har bir solik bir daraxtning ostida turib o’sha daraxtni vasf qilgan. U zinhor bog’da bundan boshqa daraxt yo’q degani emas. Ta’riflar qanchalik ixtilofli bo’lmasin ularning barchasi poklanish va taqvo martabasiga yetib boradi”, – deb aytadi.

Shihobuddin Abu Hafs ibn Muhammad Suhravardiy (vaf. 632/1234 y.) (Mukhamedov Nematullo, 2019:7-14) so’fiyni quyidagicha ta’riflaydi: “So’fiy har bir narsani o’z joyiga qo’yadigan, vaqtlarni va ishlarni ilm ila tadbir qiladigan, xalqni o’z maqomiga qo’yadigan, Haqni amrini o’z joyiga qo’yadigan, berkitilishi lozim bo’lgan narsani berkitadigan, ochilishi lozim bo’lgan narsani ochadigan, ishlarni huzuri qalb ila, sihhati

tavhid ila, kamoli ma’rifat ila, rioyatu sidqu ixlos ila o’z o’rnida ado etadigan shaxsdir” (Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq, 2021:36).

Tasavvuf islom shariati talablarini ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi oliyjanob fazilatlarini o’zida mujassam etib, nafsni poklash yo’li bilan komil inson darajasiga erishishga harakat qilishdan iborat. Tasavvufning paydo bo’lishi va rivojlanishi borasida sharq va g’arb olimlari tarafidan bir qancha qarashlar mavjud bo’lib, ularni umumlashtirgan holda o’zbek tasavvuf olimi Komiljon Rahimov tasavvuf tarixini so’fiylik harakati shakllari nuqtai nazaridan zuhd (zohidlik) davri (VIII-IX asrlar), so’fiylik maktablari va oqimlari davri (IX-XI asrlar) hamda so’fiylik tariqatlari davri (XII asrdan keyin) deb nomlanuvchi uch davrga, so’fiylik dunyoqarashi nuqtai nazaridan esa zuhd (zohidlik) davri (VIII-IX asrlar), irfon (oriflik, ma’rifat) davri (IX-XIII asrlar), falsafiy tasavvuf davri (XIII-XIV asrlar) va xalqona tasavvuf davri (XV asrdan keyin) deb nomlanuvchi to’rt davrga bo’lish mumkin deb hisoblaydi (Rahimov K., 2020:25).

Tasavvufning paydo bo’lishi borasida yana boshqa fikrlar ham mavjud bo’lib, Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (vaf. 2015 y.) “Tasavvuf haqida tasavvur” kitobida bu borada ko’plab fikrlarni keltirib, so’ngi xulosa o’laroq tasavvufning kelib chiqishi Odam (a.s.) davriga yetib borishini va keyingi payg’ambarlar ham tasavvufda bo’lganini aytadilar. Islomdan keyingi tasavvuf musulmonlar uchun to’g’ri yo’l ekanini, tasavvufning turli tariqatlarga bo’linib ketishiga aslida hojat yo’qligi, shariatga asoslangan barcha tariqatlar bitta maqsadga olib borishini keltiradilar (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 2021:3-50).

MUHOKAMA

Tasavvufning rivojlanish bosqichlarini o’rganish asosida tasavvufiy tafsirlarning paydo bo’lishi va taraqqiy etishini bir necha davrlarga bo’lish mumkin. Mutasavvif olimlar Qur’oni karimning zohiriy ko’rinib turgan ma’nolaridan tashqari, faqat ilhom bilan bilinadigan ichki botiniy ma’nolari ham bor ekanini ta’kidlashadi. Qur’oni karimni botiniy, ishoriy ma’nolarini tafsir qiluvchi yo’nalish tafsir ilmlarida tasavvufiy tafsirlar nomi bilan ajralib chiqdi. Ushbu tafsirlar ishoriy tafsirlar, irfoniy tafsirlar, so’fiy tafsirlar nomlari bilan ham mashhur bo’lib, mufasssir bunday tafsir ta’lif etishi uchun undan nafaqat ilm va tafakkur, balki ma’naviy kamolot ham talab etiladi. Quyida tasavvufiy tafsirlarning tadrijiy rivojlanish davrlari, ularga qo’yiladigan shartlar tahlili va eng birinchi

tasavvufiy tafsirlar yuzasida ma'lumotlar beriladi.

Qurtubiyning (vaf. 595/1273 y.) tafsirida Ibn Abbosdan qilingan quyidagi rivoyat keladi: Abdulloh ibn Abbos (r.a.) "Rad" surasining 17-oyatini tafsir qilib shunday dedi: "U osmondan suv tushirdi" – bu Qur'ondir, "So'ngra vodiylarda o'z miqdoricha sel oqdi" oyatidagi "Vodiylar"dan murod obidlarning qalblaridir" (Qurtubiy, 1988:201) – deb ta'vil qilgan. II asrlarda yashagan obid va zohidlar Qur'onni chuqur tadabbur etib, e'tibor bilan o'qishga katta ahamiyat berganlar. Qur'oni Karimni shu tarzda o'qishga urinish natijasida zuhd, taqvo, ixlos, niyat, axloqiy va ma'naviy masalalarga qaratilgan tafsirlar paydo bo'la boshladi. Ushbu tafsirlar insonlarning nafsini turli yomon illatlardan poklashga, mol-dunyoga hirs qo'ymaslikga, solih amallar qilib komil inson darajasiga chiqishga undovchi vazifasini bajargan. Dastlabki tasavvufiy tafsir qilingan oyatlarni Muhammad Abdurrahimning "Tafsiri Hasan Basriy" nomli asarida ko'plab misollar bilan uchratish mumkin. Hasan Basriy (vaf. 110/728 y.), Ja'fari Sodiq (vaf. 148/765 y.), Sufyoni Savriy (vaf. 161/778 y.), Abdulloh ibn Muborak (vaf. 181/707) lardan yetib kelgan ishoriy tafsirlarga oid rivoyatlar eng mashhurlaridan hisoblanadi.

Hasan Basriy Abdulloh ibn Abbos (r.a.)ning tafsir darslariga qatnashar edi. Abdulloh ibn Abbos (r.a.) masjid va uyda alohida ilm berib, masjidda ommaga zohiriy ilmlarni, uyda xos shogirdlariga botiniy ilmlardan dars o'tar edilar (Dr. Sulaymon A., 1974:41). Hasan Basriyning tafsiri bo'lgani haqida Muhammad ibn Nadim o'zining "Fehrist" asarida ma'lumot beradi. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy "Jome'ul bayon" asarida Hasan Basriyning shogirdlaridan kelgan rivoyatlarni kiritgan, ammo bu rivoyatlar kam sonda kelganligini aytib o'tadi (Ibn Nadim, 1988:201).

Hasan Basriyning ishoriy tafsir qilishiga "Fussilat" surasining 33-oyati misolida ko'rish mumkin.

وَمَنْ أَحْسَنُ قَوْلًا مِّمَّنْ دَعَا إِلَى اللَّهِ وَعَمِلَ صَالِحًا وَقَالَ إِنَّنِي مِنَ الْمُسْلِمِينَ

"Alloh yo'lida da'vat etgan va o'zi ham solih amal qilib, "Men musulmonlardandirman" – degan kishidan kim chiroyliroq so'zlovchidir?!" (Shayx Abdulaziz M. 2001:480).

Hasan Basriy bu oyatni tafsirida aytadi: "Bu Allohning suyukli bandasidir, bu Allohning valiysidir, bu Allohning tanlab olganidir, bu Allohning eng xayrli bandasidir, Alloh uchun maxluqlarning eng yaxshisidir. U Allohning chaqirig'ini ijobat qildi va insonlarni ham Alloh ijobat qilgan narsaga chaqirdi. Uning chaqirig'i ostida solih amal qildi va men musulmonlardanman – dedi. Bu Allohning xalifasidir" (Muhammad ibn Jarir

Tabariy, 1954:390). Ushbu oyat tafsiridan ko'rinib turibdiki, Hasan Basriy oyatni tasavvufiy tafsir qilishga alohida e'tibor qaratgan.

Abdulloh ibn Muborak tobeinlarning mashhurlaridan bo'lib, Movarounnahr hududiga hadis ilmini eng birinchi olib kirgan olimlardan deb qaraladi. Abdulloh ibn Muborakning ilmi, taqvosi, zuhdi, hayoti haqida ko'plab olimlar o'z asarlarida keltirgan. Abdulloh ibn Muborakning tafsir ilmda yozilgan asari mavjud va bu asar hozirgacha yetib kelgan. "Vadih fi tafsiril Qur'an" nomli tafsiri hozirda Turkiyaning "Sulaymoniyya" kutubxonasining "Ayo Sofiya" bo'limida saqlanadi. Abdulloh ibn Muborakning tafsiri asosan rivoyatlarga asoslangan "Tafsir bil ma'sur" bo'lishiga qaramay unda ishoriy sharhlangan o'rinlar ham mavjud.

وَمَنْ يُطِيعِ اللَّهَ وَالرَّسُولَ فَأُولَٰئِكَ مَعَ الَّذِينَ أَنْعَمَ اللَّهُ عَلَيْهِمْ مِنَ النَّبِيِّينَ وَالصِّدِّيقِينَ وَالشُّهَدَاءِ وَالصَّالِحِينَ وَحَسُنَ أُولَٰئِكَ رَفِيقًا

"Kimda kim Alloh va Payg'ambarga itoat etsa, ana o'shalar Allohning in'omiga erishgan zotlar, ya'ni payg'ambarlar, sodiqlar, shahidlar va solihlar bilan birgadirlar. Ular hamroh sifatida naqadar go'zaldir" (Abdulaziz Mansur, 2001:88).

Tafsirda quyidagilarni keltiriladi: "Bu oyat Rasululloh (s.a.v.)ning mavlosi Savbon (r.a.) haqida nozil bo'lgan bo'lgan. Savbon (r.a.) Rasululloh (s.a.v.) ni qattiq yaxshi ko'rar edi. U zot (s.a.v.)dan ayrilishni o'ylay olmasdi. Bir kuni Rasululloh (s.a.v.) Savbon (r.a.)ning rangini sarg'aygan holda ko'rib, so'radilar. Shunda, Savbon (r.a.): "Ya Rasululloh, oxirtda (sizning darajangiz yuqori bo'lib) sizni ko'rmay qolishdan qo'rqaman", – dedi.

Rasululloh (s.a.v.): "Kim Allohga, Rasululloh (s.a.v.)ga ergashsa, mahshar kuni Payg'ambarlar, siddiqlar, shahidlar, solihlar bilan birga bo'ladilar. Jannatda ular bilan birga bo'lish naqadar yoqimli" (Dr. Sulaymon A., 1974:41).

Keyingi yillarda tasavvufning taraqqiy etishi bilan oyatlarni tafsir qilayotganda ularning ko'rinib turgandan tashqari botiniy ma'nolarini tasavvufiy tushunchalar asosida sharhlash boshlandi. "Rum" surasining 41-oyatidagi "Quruqlikda va yerda buzg'unchilik paydo bo'ldi" oyatidagi quruqlik insonning tashqi a'zolariga, dengizni esa, qalbi va ruhiga ishora qilingan deb da'vo qiladilar. Shunga ko'ra, insonlarning jismi va ruhi qilgan amallari tufayli zarar ko'radi deb ta'vil qilishadi. Mutasavvuf mufasssirlar ishoriy tafsir qilishga Qur'ondagi tafakkur, tadabbur, tazakkur va tartil bilan o'qishga buyurilgan oyatlarni dalil qilib keltiradilar. Ushbu oyatlarga "Baqara" surasining 219-oyati, "An'om" surasining 50-oyati, "Sod" surasining 29-oyati, "Muhammad" surasining 24-oyati, "Muzammil" surasining 4-oyatini misol o'laroq keltiradilar.

Muhammad Ali Sobuniy (vaf. 1442/2021 y.): “Ba’zi ilm egalari ayon bo’lgan Qur’onning zohiriga xilof yashirin ishoralar yoki Qur’onning asrorlarini anglashlari uchun Alloh qalb ko’zlarini ochib qo’ygan, tasavvuf ahllaridan bo’lgan nafsig qarshi kurashgan oriflarga zohir bo’lgan ishoralar hamda ilohiy ilhom vositasida oyatlarning ma’nolarini zehnlari teran anglagan kishilarning ta’vildir. Bu ta’villar oyatlarning zohiriy ma’nolariga zid bo’lmay, ularning orasini jamlash mumkin bo’ladi” (Muhammad Ali Sobuniy, 1981:169).

Shihobuddin Olusiy “Ruhul maoniy fiy tafsiril Qur’anil azim vas sab’ul masoniy” tafsirining muqaddimasida tasavvufiy tafsirga shunday ta’rif beradi: “Tasavvufiy tafsir – suluk arboblari kashf bo’lgan daqiq ma’nolarni jamlagan tafsir turidir” (Shihobiddin Olusiy, 2000:11). Bu tafsir turidan ma’lum qoidalar asosida foydalanish joizligi aytib, uchta qoidani sanab o’tadi:

1. Qur’onning zohiriy ma’nosi bilan ishoriy ma’nosi o’rtasida bog’liqlik bo’lishi;

2. Qur’onning zohiriy ma’nosini rad etib, faqat ishoriy ma’nosinigina ushlab, oyatdan ko’zlangan maqsad mana shu demaslik;

3. Ishoriy ma’noni qo’llovchi shar’iy dalilning bo’lishi.

Ushbu shartlarga qo’shimcha tarzda mufasss olimlar yana quyidagi shartlarni ham kiritadilar:

– ishoriy ma’nolardan bilingan ta’villar oyatning lafzida bo’lishi;

– zohiriy ma’no bilan ishoriy ma’no o’rtasida o’zaro bog’liqlik bo’lishi;

– bu ishoralarni tafsir bobidan hisoblamaslik;

– aql va shariatga xilof bo’lmasligi;

– uni qo’llaydigan shar’iy dalil bo’lishi;

– oyatning zohiriy ma’nosiga xilof ravishda, bundan murod ishoriy ma’noning o’zi, deb bilmaslik;

– ishoriy ma’no haqiqatdan uzoq bo’lmasligi.

Fikrlarni umumlashtirilsa, tasavvufiy tafsirlar – Qur’on oyatlarining zohiriy ma’nolariga qaramay, uni Alloh tomonidan berilgan laduniy ilm orqali maxfiy ishoralari taqozosiga ko’ra tafsir qilishdir.

Hadis, fiqh va kalom olimlari Qur’oni karimni tafsir qilishda hadis, arab tili qoidalari, balog’at va mantiq ilmlariga asoslanib sharhlaganlar, mutasavvif olimlar va so’fiylar esa, bu ilmlarga qo’shimcha tarzda Qur’onni ta’vil qilishda o’zlarining ilhom va laduniy ilmiga tayanishgan. Bu usulda tafsir qilishga alohida yo’nalish sifatida qaralgan. Zohiriy ma’nodan tashqari oyatlarning botiniy ma’nolarini ta’vil qilish I-II/VII-VIII asrlarda kam uchragan bo’lishiga qaramay, keyingi yillarda

ushbu yo’nalishda tafsir qilingan oyatlar ko’payib alohida tafsir sifatida yuzaga kela boshladi.

Ushbu tafsirlar o’z hajmi, ifoda uslubi, aqliy va naqliy tafsirlardan qay darajada istefoda etishiga qarab o’zaro farqlanadi. Jumladan, “Tafsir Qur’anil Azim” hijriy III asrda yozilgan, alohida kitob holatda jamlangan ilk tasavvufiy tafsir hisoblanadi. Muallif Abu Muhammad Sahl ibn Abdulloh ibn Yunus ibn Iso ibn Abdulloh Tustariy (vaf. 283/896 y.) taqvodor, karomati zohir bo’lgan oriflardan bo’lgan. Sahl Tustariy oyatlarning hammasini emas, balki suralardagi ba’zi oyatlarnigina sufiy tafsir qilgan. Asarda “Abu Bakr dedi: Sahldan mana shu oyat haqida so’raldi, u shunday dedi” iborasi ko’p uchraydi. Bu holat tafsirni Sahl Tustariy o’zi yozmagani, uning fikrlarini Abu Bakr ibn Muhammad ibn Ajm Baladiy (vaf. 555/1112 y.) jamlab kitob holiga keltirgani ma’lum bo’ladi¹. Shunday bo’lsada, tafsirdagi fikr va qarashlar Sahl Tustariyga tegishi ekanligi o’z isbotini topgan. Chunki undagi fikrlar, Abu Tolib Makkiy (vaf. 386/996 y.)ning “Quvvatul qulub”, Abu Nuaym Asfahoniy (vaf. 430/1038 y.)ning “Hilyatul avliyo” kabi so’fiy adabiyotlarda kelgan. Kitob muqaddimasida muallif Qur’onning zohiri va botini haqida shunday deydi: “Qur’ondagi har bir oyatning to’rt ma’nosi bor: zohiri, botini, chegarasi va debochasi hisoblanadi. Zohiri tilovat qilish, botini tushunish, chegarasi halol va haromi, debochasi undan murod nima ekanligiga qalbning yorishishidir” (Sahl Tustariy, 2004:76).

“Haqiqut tafsir” tafsiri hijriy IV asrda ta’lif etilgan ishoriy tafsirlardan hisoblanadi. Muallif Abu Abdurrohman Muhammad ibn Husayn ibn Muso Azdiy Sulamiy (vaf. 412/1021 y.) Xurosonning olim va so’fiy shayxlaridan bo’gan. Qur’onning barcha suralari to’liq tafsir qilingan. Abu Abdurahmon Sulamiy “Haqiqut tafsir” kitobi orqali tasavvufiy tafsir yozish bo’yicha yangi davrni boshlab berdi. U birinchi bo’lib tasavvufiy tafsirlar orasida oyatlarni ketma-ket, tartib bilan, to’liq tafsir qilgan. Kitobni “Bismillah” kalimasini tafsir qilish bilan boshlagan va bu borada aytilgan 35 ta fikrni keltirgan. Asarda barcha oyatlar bir xil uslubda, ya’ni zohiriy ma’nolarini zikr qilmay faqat ishoriy ma’nolarni berish uslubida sharhlangan. Jumladan, “Haj” surasi 32-oyati “(Kalom) shudir. Yana kimki Allohning shiorlarini ulug’ deb bilsa, bas, albatta, (bu) dillarning taqvosiandir” tafsirida shunday deydi: “Sahl “Qalbning taqvosi gunohlarni tark qilishdir, har bir narsa gunohning ustiga o’rnashadi” – deb, Ja’far “Qalbning taqvosi a’zolarining xohishiga xilof ish qilishdir” – deb,

¹ Sahl Tustariyning yozilgan asarlari va tafsiri mavjud bo’lmagan, keyingi davrda uning og’zaki rivoyatlari Abu Bakr ibn Muhammad Ibn Ajn Baladiy tarafidan jamlangan.

Haririyy "Nafsning taqvoli zohirdir, qalbning taqvoli yashirindir" – deb, Junayd "Allohnin shiorlarini ulug'lash tavakkul, tavfiz, yaqin va taslimni ko'rsatish hisoblanadi. Bular avliyolarning asrorlaridagi Haqning shiorlaridir. Agar banda Allohni va Uning hurmatini ulug'lasa, Alloh shu bandasining zohirini odob bilan ziynatlaydi" (Abu Abdurrahmon Sulamiy, 2001:23) – deb ta'rif bergan.

"Latoiful ishorot" tafsiri V/XI asrga doir tafsir bo'lib, 410/1019-yilda yozilgan. Muallif Abulqosim Abdulkarim ibn Havozin ibn Abdulmalik ibn Talha Ibn Muhammad Ustuvoyi Qushayriy Naysapuriy Shofeiyy (vaf. 465/1072 y.) kunyasi "Abulqosim" bo'lib, "Zaynul islom" va "Qushayriy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Umrining oxirida Naysapurda yashab ijod qilib, o'sha yerda vafot etgani uchun "Naysapuriy" nisbasi ham berilgan (Dr. Ibrohim B, 1992:8). Bu asar Qushayriyning yozgan asarlari orasida eng muhimi hisoblanadi. Asarda Qur'oni karimning to'liq o'ttiz porasi tafsir qilingan. Ba'zi o'rinlarda oyatning zohiriyy ma'nosiga ham qisqacha to'xtalib, keyin ishoriiy ma'nosini bayon qiladi. An'om surasi "Agar Uning oyatlariga iymon keltirguvchilardan bo'lsangiz, Allohning ismi zikr qilingan narsadan yengil" oyatini quyidagicha sharhlaydi: "Bu oyatning tafsirida qurbonlikka oid hukm berilgan bo'lib, uning ishoriiy ma'nosi esa g'afolat bilan taom yeyishga ta'qiqdir, chunki kim g'afolat bilan taomlansa, qalbida va o'y-xayollarida nafsning hamda shaytonning vasvasalarini bardavom qiluvchi quvvat hosil bo'ladi" (Dr. Ibrohim B, 1992:308). Bu tafsirning yana bir o'ziga xos jihati shundaki, boshqa tasavvufiy tafsirlarda basmala tafsirlarning boshida ma'nolari aytib o'tilsa, bunda har bir suraning boshida o'sha suraga muvofiq yangidan yangi ta'villari bayon qilinadi.

"Ruhul maoniy fiy tafsiril Qur'anil azim va sab'ul masaniy" tafsirining muallifi Abussano Shihobiddin Sayyid Mahmud Afandi Olusiy ibn Sayyid Afandi Olusiy Bag'dodiy (vaf. 1271/1854 y.) Olusiyning mazkur tafsiri boshqa hamma tafsirlardan ulug' va mo'tabar sanaladi. U tarixan oxirgi yozilgan tafsirlardan bo'lib, barcha tafsirlarning xulosasini o'zida jamlagan. Qaysi tafsirdan naql qilayotgan bo'lsa, o'sha tafsir muallifining sifati bilan boshlaydi. Masalan, Abu Sa'ud tafsiridan naql qilganda, "Shayxul Islom", Bayzoviydan naql qilganda, "Qoziiy", Roziydan naql qilganda esa "Imom" deb boshlaydi. Bu tafsir aqlni ham, naqlmi ham, ishorani ham birdek o'zida jamlagan qomusiy tafsir hisoblanadi.

"Ruhul bayon fiy tafsiril Qur'an" tafsiri muallifning to'liq ismi Ismoil Haqqiy Bursaviy ibn Mustafa Istanbuliy ibn Bayram Chovush Jilvatiy bo'lib, tafsir avvalo, Qur'onni Qur'on bilan, hadis bilan, sahoba

va tobeinlarning so'zlari bilan izohlash usulida tafsir qilgan. Sababi nuzullarni oyatlarni sharhlashdan avval berib ketgan, tafsirda hadislarning aksari sahih bo'lsa ham, zaif va mavzu hadislar ham uchrab turadi. Bunday hadislarni berganda muallif, "buning hadis ilmiga aloqasi yo'q", deb aytib ketadi. Tafsirda yana aqidada adashgan qadariy, jabariy, jahmiy, mo'taziliy toifalarga raddiyalar berilib, tanqid qilingan. Bursaviy hanafiy mazhabida bo'lsa ham, boshqa mazhablarning ham qarashlarini bayon etib ketgan. Oyatlarni tafsir qilishda ba'zan usul qoidalarini ham ishlatgan. Mazhab imomlarining so'zlarini keltirganda, ba'zida o'z fikrlarini ham aytib o'tgan. Ishoriy tafsirlarni berganda, "Ta'vilotu Najmiyya"dan ko'p naql qilgan.

NATIJA

Tafsir ilmni – Qur'oni karimdagi Allohning murodini inson qudrati yetganicha o'rganadigan ilm bo'lib, dastavval, barcha ilmlar bir butun sifatida islom va fiqh nomi ostida o'rganilgan, vaqt o'tishi bilan bu ilmlar o'z yo'nalishiga ko'ra ajralib chiqq boshlagan. Tafsir ilmi ham Qur'on oyatlari nozil bo'lishi bilan Payg'ambar tafsirlari sifatida namoyon bo'lib, sahobalar va tobeinlar davrida rivojlanib borgan. Tafsir bilan bir qatorda ta'vil lafzi ham ishlatilib, ta'vil qat'iy bo'lmagan va Allohga guvohlik bermagan holda ehtimolli ma'nolardan birini maqbul sanalgan. Tasavvufiy tafsirlarning rivojlanishi bevosita tasavvuf bilan bog'liq bo'lib, tasavvuf islom shariatini talablarini ixlos bilan bajargan holda zuhd, taqvo, kamtarlik kabi oliyjanob fazilatlarini o'zida mujassam etib, nafsni poklash yo'li bilan komil inson darajasiga erishish yo'li hisoblanadi. Mutasavvif olimlar Qur'oni karimni ko'rinib turgan ma'nolaridan tashqari, ichki ishoriiy ma'nolari ham bor ekanligini va buni ilmi laduniy, ilhom, ru'ya, kashf bilan ochilishini mumkinligini ta'kidlashadi. Ba'zi ilm egalari ayon bo'lgan Qur'onni zohiriga xilof bo'lmagan yashirin ishoralar yoki Qur'onni anglashlari uchun Alloh qalb ko'zlarini ochib qo'ygan, tasavvuf ahllaridan bo'lgan, nafsiga qarshi kurashgan oriflarga zohir bo'lgan ishoralar hamda ilohiy ilhom vositasida oyatlarning ma'nolarini zehnlarida teran anglagan kishilarning ta'viliga nisbatan ishoriiy tafsir atamasi qo'llaniladi. Bu ta'villar oyatlarning zohiriyy ma'nosiga zid bo'lmay, ularning orasini jamlash mumkin bo'ladi.

Tasavvufiy tafsirlarni rivojlanish bosqichini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin. Payg'ambar, sahobalar va tobeinlar davri, mutaqaddim ulamolar davri, o'rta asr mutasavvif mufasssirlar davri, tasavvufiy tafsirning yuksalish davri (XIII-XVIII asrlar)

va Zamonaviy tasavvufiy tafsir davri (XX asr va hozirgi davr). Payg'ambar, sahoba va tobein davrlarida ba'zi oyatlar va suralarnigina tasavvufiy sharh qilinganini uchratish mumkin. Ilk mutasavviflardan bo'lgan Hasan Basriy, Sahl Tustariy va Sohib Muhosibiy kabi ulamolar tasavvufiy tafsirning asoslarini yaratgan hisoblanib, shu davrdan boshlab so'fiy tafsirlar rivojlanish bosqichiga kirdi. O'rta asr mutasavvif mufassirlari Qur'on oyatlarining ishoriy sharhlari asosiy o'rin egallagan tafsirlar yaratgani bilan e'tiborli hisoblanadi. Tasavvufiy tafsirlarning rivojlanish davri (XIV-XVIII asrlar) mufassirlar oyatlarning nafaqat botiniy, balki ishoriy ramziy ma'nolarini sharhlashga ham e'tibor qaratib boshlagan bo'lib, bu davrda tasavvufiy tafsir kengroq tarqaldi va uning ko'plab shakllari vujudga keldi. Mutasavviflar Qur'onni tahlil qilishda ishoriy tafsirni keng qo'lladilar, ya'ni oyatlarning ichki va ramziy ma'nolarini ochib berish uchun turli qarashlar, misollar va rasmiy yondashuvlarni ishlatdilar.

XULOSA

Oyatlarning tasavvufiy-ishoriy sharhlanishi masalasida Rasululloh (s.a.v.)dan bevosita, aniq va izchil rivoyat an'anasi keng ko'lamda yetib kelmagan. Shunga qaramay, sahobalar, tobeinlar va taba tobeinlar davrida Qur'on matnini zohiriy ma'noni saqlagan holda, undagi ma'naviy-axloqiy ishoralar va qalbiy tarbiya bilan bog'liq mazmunlarni ajratib ko'rsatishga intilishning dastlabki izlari kuzatiladi. Hasan Basriy, Sufyon Savriy kabi tobeinlarga nisbat beriladigan ishoriy talqinlar, shuningdek Abdulloh ibn Muborak faoliyati bilan bog'liq tafsiriylar qarashlar, bu yo'nalishning tarixiy ildizlari ilk uch asr ilmiy muhitiga borib taqalishini ko'rsatadi. Bu hol ishoriy tafsirning keyingi asrlarda mustaqil yo'nalish sifatida shakllanishiga zamin bo'lgan dastlabki intellektual va ma'naviy ehtiyojni anglashga yordam beradi. I-II/VII-VIII asrlarda oyatlarning zohiriy ma'nosidan tashqari botiniy ma'nolarini keng ko'lamda ta'vil qilish ommaviy holatga aylanmagan. Qur'onni sharhlashda asosan til, sababun-nuzul, rivoyat va fiqhiy dalillash ustuvor bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan Qur'on oyatlaridagi ma'naviy tarbiya, qalb pokligi, ixlos, tavba, sabr, tavakkul va rizo kabi mavzularni chuqurroq ochib berishga qaratilgan og'zaki izohlar ko'paydi va ular asta-sekin yozma shaklga ko'cha boshladi. Ishoriy-tasavvufiy talqinlar ma'lum metodik xususiyatlarga ega bo'lgan alohida tafsiriylar uslub sifatida shakllandi. Tasavvufiy tafsirlarning tadrijiy rivojlanishini tahlil qilganda, ilmiy adabiyotlarda keng e'tirof etiladigan muhim asarlar qatoriga Sahl Tustariyning "Tafsir al-

Qur'an al-'Azim", Abu Abdurrahmon Sulamiyning "Haqo'iq at-tafsir", Abulqosim Qushayriyning "Lato'if al-ishorat", shuningdek Shihobiddin Olusiyning "Ruh al-ma'oni fi tafsir al-Qur'an al-'Azim va as-sab' al-masoniy" asarlari kiradi. Mazkur tafsirlar ishoriy tafsirning shakllanishi va takomilida muhim bosqichlarni ifodalaydi. Ularda Qur'on matni avvalo zohiriy ma'noda qabul qilinib, so'ng ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan bog'liq ramziy ishoralar ehtiyotkorlik bilan sharhlanadi.

Ilk davrlardayoq ayrim oyat va suralarga tasavvufiy talqin berilgan bo'lib, Hasan Basriy, Sahl Tustariy va (axloqiy-ruhiy tahlil uslubi bilan tanilgan) Muhosibiy kabi ulamolar bu yo'nalishning shakllanishida muhim o'rin tutgan. O'rta asrlarda mutasavvif mufassirlar Qur'on oyatlarini ishoriy sharhlashga ko'proq e'tibor qaratib, oyatlardagi ma'naviy tarbiya mazmunini tizimli tarzda yoritishga intildi. XIV-XVIII asrlarda esa tasavvufiy tafsir doirasi kengayib, oyatlarning botiniy va ramziy qatlamlarini tahlil qilish, ma'rifat, ishq, valoyat, suluk va maqomot kabi tushunchalarni Qur'on matni bilan bog'lab izohlash kuchaydi. Zamonaviy davrda tasavvufiy-tafsiriylar yondashuvlar ham muayyan yangilanishlarni boshdan kechirdi. Olimlar Qur'onning ma'naviy-axloqiy xulosalarini ijtimoiy muammolar, tarbiya, mas'uliyat, jamiyat ma'naviyati masalalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etishga harakat qildilar. Bu yo'nalishda Muhammad Said Ramazon Butiy asarlarida Qur'on oyatlarining axloqiy-ijtimoiy qirralarini kuchaytirgan yondashuvlar uchraydi. Ishoriy talqin Qur'onning zohiriy ma'nosini inkor etmasligi, shariatning asosiy qoidalariga zid kelmasligi va talqin subyektivlikka ketib qolmasligi lozim. Shu metodik chegaralar ishoriy tafsirni Qur'onni anglashda ma'naviy-axloqiy chuqurlik beruvchi, biroq mas'uliyatli yondashuvni talab qiladigan tafsiriylar uslub sifatida tushunishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev Abdurashid va b. (2016). Qur'onshunoslikka oid ilmlar. Toshkent: Mavarounnahr.
2. Atesh, D. S. (1974). Ishoriy tafsir okulu. Anqara: Anqara Universiteti.
3. Baysuniy, D. I. (1992). Imom Qushayriyning hayoti, tasavvufi va ilmiy faoliyati. Qohira: Maktabatul adab.
4. Bursaviy, I. H. (2018). Ruhul bayan fi tafsiril Qur'an. III. Bayrut: Darul kutubil ilmiyya.
5. Komiljon, R. (2020). Mavarounnahr tasavvufi tarixi. Toshkent: Akademnashr.
6. Mansur, S. A. (2001). Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. Toshkent: Toshkent islom universiteti.

7. Maxsudov, D. (2019). Tafsir ilmiga kirish. Toshkent: Qaqnus.
8. Maxsudov, D. (2021). Tafsir uslublari. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
9. Mukhamedov Nematullo (2019) "The role of the Sheikh Zayniddin complex in the spiritual life of Tashkent" // Multidisciplinary scientific journal "Arhivarius" collection of scientific publications. -P.7-14. [https:// www.researchgate.net/publication/333985613](https://www.researchgate.net/publication/333985613).
10. Nadim, M. i. (1988). Fehrist. Bayrut: Dar kutubil ilmiyya.
11. Olusiy, S. (2000). Ruhul maoniy fi tafsiril Qur'anil azim va sab'il masoniy. I. Bayrut: Ihyo turosil arobiy.
12. Qurtubiy, M. i. (1988). Jam'i liahkamil Qur'an. Bayrut: Dar kutubil ilmiyya.
13. Sobuniy, M. A. (1981). Tibyan fi ulumil Qur'an. Damashq: Maktabatul G'azzaliy.
14. Sulamiy, A. A. (2001). Haqiqut tafsir. II. Bayrut: Darul kutubil ilmiyya.
15. Tabariy, M. I. (1954). Jomeul bayon. XXIV. Qohira: Dor ibn Javziy.
16. Tustariy, S. (2004). Tafsiril Qur'anil azim. Qohira: Darul haram lit turos.
17. Yusuf, S. M. (2021). Tasavvuf haqida tasavvur. Toshkent: Hilol-Nashr.

REFERENCES

1. Abdullayev Abdurashid va b. (2016). Qur'onshunoslikka oid ilmlar. Toshkent: Mavarounnahr.
2. Atesh, D. S. (1974). Ishoriy tafsir okulu. Anqara: Anqara Universiteti.
3. Baysuniy, D. I. (1992). Imom Qushayriyning hayoti, tasavvufi va ilmiy faoliyati. Qohira: Maktabatul adab.
4. Bursaviy, I. H. (2018). Ruhul bayan fi tafsiril Qur'an. III. Bayrut: Darul kutubil ilmiyya.
5. Komiljon, R. (2020). Mavarounnahr tasavvufi tarixi. Toshkent: Akademnashr.
6. Mansur, S. A. (2001). Qur'oni Karim ma'nolari tarjimasi. Toshkent: Toshkent islom universiteti.
7. Maxsudov, D. (2019). Tafsir ilmiga kirish. Toshkent: Qaqnus.
8. Maxsudov, D. (2021). Tafsir uslublari. Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.
9. Mukhamedov Nematullo (2019) "The role of the Sheikh Zayniddin complex in the spiritual life of Tashkent" // Multidisciplinary scientific journal "Arhivarius" collection of scientific publications. -P.7-14. [https:// www.researchgate.net/publication/333985613](https://www.researchgate.net/publication/333985613).
10. Nadim, M. i. (1988). Fehrist. Bayrut: Dar kutubil ilmiyya.
11. Olusiy, S. (2000). Ruhul maoniy fi tafsiril Qur'anil azim va sab'il masoniy. I. Bayrut: Ihyo turosil arobiy.
12. Qurtubiy, M. i. (1988). Jam'i liahkamil Qur'an. Bayrut: Dar kutubil ilmiyya.
13. Sobuniy, M. A. (1981). Tibyan fi ulumil Qur'an. Damashq: Maktabatul G'azzaliy.